

I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yil uchun Andijon viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 54 464,0 mlrd so'mni tashkil etdi va 2021- yil bilan taqqoslaganda 8,6 % ga o'sdi.




YAHM deflyator indeksi 2021- yil narxlariga nisbatan 115,7 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Andijon viloyatining qo'shgan hissasi 6,1 % ga yetdi.




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari


		Mlrd so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
		2021- yil	2022- yil	
	I. YAHM	43 332,5	54 464,0	108,6
	<i>shu jumladan:</i>			
	tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	42 120,6	52 208,5	108,4
	mahsulotlarga sof soliqlar	1 211,9	2 255,5	115,1
	II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	42 120,6	52 208,5	108,4
	qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	18 232,0	21 544,9	103,5
	sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	10 904,7	15 135,1	119,2
	sanoat	8 450,2	12 208,8	122,6
	qurilish	2 454,5	2 926,3	107,2

		Mlrd so‘m		O‘sinh sur‘atlari, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da
		2021- yil	2022- yil	
	Xizmatlar	12 983,9	15 528,5	106,2
	savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	2 767,7	3 383,9	108,0
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	2 210,3	2 608,4	111,6
	boshqa xizmat tarmoqlari	8 005,9	9 536,2	104,1

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 16 564,0 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilga nisbatan 6,4 % ga yuqoridir.












**Aholi jon boshiga hisoblangan
YAHM hajmi va o‘sinh sur‘atlari**



Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 95,9 foizini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 4,1 foizini tashkil etdi.


Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 41,3 % ni, sanoat tarmog‘i 23,4 % ni, qurilish 5,6 % ni va xizmatlar sohasi 29,7 % ni tashkil qildi.

 Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)		2021- yil	2022- yil
I. YAHM		100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>			
	tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	97,2	95,9
	mahsulotlarga sof soliqlar	2,8	4,1
II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati		100,0	100,0
	qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	43,3	41,3
Sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)		25,9	29,0
	sanoat	20,1	23,4
	qurilish	5,8	5,6
Xizmatlar		30,8	29,7
savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar		6,6	6,5
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	5,2	5,0
	boshqa xizmat tarmoqlari	19,0	18,2




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2021- yil



2022- yil





YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 103,5 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 41,3 %), sanoatda – 122,6 % (23,4 %), qurilishda – 107,2 % (5,6 %), xizmatlar sohasida – 106,2 % (29,7 %)ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 108,0 % (6,5 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 111,6 % (5,0 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 104,1 % (18,2 %)dan iborat bo'ldi.



**YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari**
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)


■ 2021- yil ■ 2022- yil



YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,5 f.p. (2021- yilda – 1,8 f.p.), sanoat tarmog'i – 4,4 f.p. (2021- yilda salbiy - 0,3 f.p.) va qurilish tarmog'i – 0,4 f.p. (2021- yilda – 0,5 f.p.), xizmat ko'rsatish sohasi – 1,9 f.p. (2021- yilda – 2,6 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,4 f.p. (2021- yilda – 0,2 f.p.)ga ko'paydi.



2022- yilda YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi
(jamiga nisbatan % da)




2022- yilda YAHM deflyatori indeksi 2021- yildagi narxlarga nisbatan 115,7 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari o'sishi sanoatda – 117,8 % va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 114,1 % qayd etildi.




YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2021-2022- yillarda YAHMda kichik biznesning ulushi

(jamiga nisbatan %da)



2022- yilda kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 69,5 % ni tashkil qildi (2021- yilda 72,2 %).

YAHMning o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.